



DUDUQLANISH VA KELIB CHIQUISH SABABLARI

*Andijon davlat pedagogika instituti
assisenti katta o'qituvchisi Ahmedova Vazira Tursunboyevna
Andijon davlat pedagogika instituti
Maxsus pedagogika: logopediya yo'nalishi talabasi
Shamsiddinova Shohistaxon G'ayratjon qiz.*

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15233653>

Annotatsiya: Duduqlanish - bu nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur'at-ohangini buzilishlari o'rganadi. Bunda ular duduqlanishni bartaraf etishga yondashish qonun-qoidalari, bolalardagi nutq tortishishlarining oldini olish va ularni tugatish usullari bilan tanishish imkoniga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: duduqlanish, bola, nutq, nutq apparati, duduq bolalar, talaffuz, sabalari, logoped, muskullar.

Duduqlanish — bu nutq apparati muskullarining tortishish natijasida nutqning sur'at-ohangining buzilishidir.

Duduqlanish muammosini nutq buzilishlari haqidagi ta'limotning rivojlanishi tarixida eng qadimiylaridan biri deb hisoblash mumkin. Uning mohiyatini turlicha talqin qilish fanning rivojlanishi va mualliflarning bunday nutq buzilishlariga qanday nuqtayi nazardan yondashganliklari va yondashayotganligi darajasi bilan bog'liqdir.

XIX asr boshlarida qator fransuz tadqiqotchilari duduqlanishni ko'rib chiqib, uni nutq apparatining periferik (sirtqi) va markaziy bo'limlari faoliyatidagi turli xil og'ishlar bilan bog'lab tushuntirdilar. Jumladan, shifokor Vuazen (1821) duduqlanish mexanizmini nutq organlari muskul sistemasiga keladigan Serebral ta'sirlarning yetishmasligi, ya'ni markaziy 321-asab sistemasini bilan bog'laydi. Shifokor Delo (1829) duduqlanishni tovush talaffuzining buzilib chiqishi (rotatsizm, lambdatsizm, sigmatizm), tovush apparatining organik shikastlanishi yoki bosh miyaning to'liq ishlamasligi deb tushuntirdi.

Qadimgi davrlarda duduqlanishni ko'proq bosh miyada namlikning to'planib qolishi (Gippokrat) yoki artikulyatsion apparat qismlarining o'zaro noto'g'ri munosabati (Aristotel) bilan bog'liq holdagi kasallik deb qarashgan. Duduqlanish paytida nutq apparatining markaziy yoki periferik (sirtqi) bo'limlarida buzilish bolishi mumkinligini Galen, Sels va Ibn Sino e'tirof etdilar.

Boshqa tadqiqotchilar duduqlanishni nutq a'zolari harakatlarining buzilishi: ovoz kovagining g'ayriixtiyoriy yopilishi (Arnot, Shultess); haddan tashqari tez nafas chiqarish (Bekkerel); muskullarning tilni og'iz bo'shlig'ida ushlab qoladigan darajada spazmatik qisqarishi (Itar, Li, Diffenbax); tafakkur va nutq jarayonining nomuvofiqligi (Blyume); kishi irodasining nutq harakati mexanizmi muskullari kuchiga ta'sir etadigan darajada mukammal emasligi (Merkel) va boshqalar bilan bog'laydilar.

Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida duduqlanish — bu murakkab psixofizik buzilishdir, degan fikrga kelinib boshlandi. Ayrimlarning e'tirofiga ko'ra, uning asosida fiziologik xarakterdagi buzilish yotadi, ruhiy jihatlar esa ikkilamchi xarakterga ega (A. Gutsman, 1879; A. Kussmaul, 1878; I. A. Sikorskiy, 1889 va boshqalar). Boshqalar ruhiy jihatlarni birlamchi, fiziologik ko'rinishlarni esa ruhiy noto'kisliklarning oqibati, deb hisobladilar (Xr. Laguzen, 1838; A. Koen, 1878; Gr. Komenka, 1900; T.D. Netkachyov, 1913 va boshqalar). Duduqlanishni hatto kutish nevrozi, qo'rquv nevrozi, noto'kislik nevrozi, bog'lanishsiz nevroz va boshqalar sifatida ko'rib chiqishga o'rinishlar ham bo'ldi.

Duduqlanishning paydo bo'lishida bosh miya qobig'idagi nerv jarayonlarining buzilgan (ularning kuchi va harakatchanligining ortishi) o'zaro munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Katta yarimsharlar qobig'i faoliyatidagi nerv buzilishi, bir tomondan, nerv sistemasining holati, uning muayyan me'yordan chetlashishiga tayyorligi bilan bog'langan bo'lishi mumkin. Boshqa tomondan, nerv buzilishi noxush tashqi omillar bilan bog'langan bo'lishi mumkin. V.A. Gilyarovskiy ham ularning



duduqlanishning kelib chiqishidagi ahamiyatini ko'rsatib o'tgan edi. Nerv buzilishi bola oliy nerv faoliyatida nozik bo'limi — nutqning zaiflashuvida aks etadi, u nutq

harakatlarning, ohangining buzilishi va tortishib qolishida namoyon bo'ladi. Qobiq faoliyatining buzilishi birlamchi hisoblanadi hamda qobiq va qobiq osti oralaridagi induksion aloqalarning buzilishiga ham da shartli reflektorli mexanizmlarning izdan chiqishiga olib keladiki, ular qobiq osti tuzilishi faoliyatini moslashtirib turadi. Vujudga kelgan shartlarga qarab, bunday hollarda qobiqning normal muvofiqlashuvi izdan chiqadi, stroipallidar sistema faoliyatida salbiy qo'zg'alishlar o'rin tutadi. Duduqlanish mexanizmidagi uning roli muhim ahamiyatga ega, chunki bu sistema me'yori nafas olish sur'ati va ritmi, artikular muskullar faoliyati uchun mas'uldir. Duduqlanish striopallidumning organik o'zgarishi holatida emas, balki uning funksiyalarining dinamik tarzda og'ishida paydo bo'ladi. Bu qarashlar nevroitik duduqlanish mexanizmini qobiq-qobiq osti aloqadorligining o'ziga xos buzilishi haqidagi tushuncha sifatida aks ettiradi.

Ayrim mualliflar fikriga ko'ra, ilk yoshli bolalardagi duduqlanish mexanizmini reaktiv nevroz va rivojlanishdagi nevroz nuqtayi nazaridan talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Rivojlanishdagi reaktiv nevroz oliy nerv faoliyatining buzilishi sifatida tushuniladi. Rivojlanishdagi nevroz davrida patologik stereotiplar asta-sekinlik bilan muhitning noqulay sharoiti — haddan tashqari g'azablanish, siqilish, zaiflashuv hollarida sodir bo'ladi. Rivojlanishdagi duduqlanish bolaning ilk yoshida, "fiziologik tili chuchuklik"ning ushlanib qolishi holatida, murakkab iborali nutq formalariga o'tishi jarayonida paydo bo'ladi. Ba'zan u turlicha genzlarning nutqiy rivojlanmay qolishi natijasi sifatida ko'zga tashlanadi.

Duduqlanuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini ham tibbiy kuzatishlar yordamida ham tajriba psixologik metodikalarni qo'llanish bilan tekshirish samaralidir. Ular yordamida xavotirli badgumonlik xususiyati, gumonsirash, ishonchsizlik, odamovilik, ruhiy tushkunlikka moyillik; nuqsonga nisbatan sust-mudofaa va mudofaa-tajovuzkorlik bilan ta'sir ko'rsatish hollari aniqlangan.

Bungacha Xd. Laguzen (1838) ham besamaralik, uyat, qo'rquv, g'azab, dahshatga tushish, boshning qattiq lat yeyishi, og'ir kasallanish, ota-onaning noto'g'ri nutqiga taqlid qilishni duduqlanish sabablariga qo'shgan edi. I.A. Sikorskiy (1989) ning birinchi bo'lib ta'kidlashicha, duduqlanish bolalar yoshiga xosdir. Chunki bu davrda nutq rivojlanishi tugallanmagan boladi. U irsiyatga muhim ahamiyat berdi, bunda nimjon bolalarda nutq mexanizmlari muvozanatini buzadigan boshqacha ruhiy va biologik sabablarni (qo'rquv, lat yeyish, yuqumli kasalliklar, taqlid qilish) shartli ravishda hisobga oldi. G.D. Netkachyov (1909) duduqlanish sabablarini bolaning oilada noto'g'ri uslubda tarbiyalanishidan qidirdi va qattiqqo'llik bilan ham da erkalatib tarbiyalash zararli deb hisobladi.

Chet ellik tadqiqotchilar duduqlanishning kelib chiqish sabablari bolalarni noto'g'ri tarbiyalash, deb ko'rsatadilar. Yuqumli kasalliklarning oqibatida a'zolarining astenizatsiyalashuvi, tili chuchuklik, taqlid qilish, infeksiya, yiqilish, qo'rqish, o'qitish paytidagi chapaqaylik deb belgilashdi.

Shunday qilib, duduqlanish etiologiyasida ekzogen va endogen omillarning jami qayd qilinadi.

Hozirgi vaqtda duduqlanish sabablarini ikki guruhga: moyillik sababi ("negiz"ga) va keltirib chiqaruvchi sababga ("turtki"ga) ajratish mumkin.

Moyillik sabablariga quyidagilar kiradi:

- **ota-onalarning nevropatik kasal lanishi** (markaziy nerv sistemasining faoliyatini bo'shashtiruvchi yoki izdan chiqaruvchi nerv kasalliklari,

yuqumli va jismoniy kasalliklar);

- **duduqlanuvchining o'zidagi nevropatik xususiyatlar** (tungi qo'rquv, enurez, kuchli qo'zg'aluvchanlik, his-hayajonli zo'riqish);

- **konstitutsionai moyillik** (vegetativ nerv sistemasining kasallanishi

va oliy nerv faoliyatining juda ham nozikligi, uning ruhiy shikastlanishga



alohida duchor bo'lishi);

- **nasliy buzilish** (duduqlanish nutq apparatining tug'ma zaifligi asosida rivojlanadi, u avloddan-avlodga retsessiv alomat tarzida o'tib borishi mumkin). Agar tashqi muhit duduqlanishga salbiy ta'sir ko'rsatsa, ekzogen omillarning ta'sirini e'tiborga olish lozim;

- **bosh miyaning turli davrlardagi rivojlanishida, ko'plab salbiy omillar ta'sirida shikastlanishi:** ona qornidagi va tug'ma jarohatlanish, asfiksiya; postnatal - yuqumli kasalliklar, turli xil bolalar kasalliklaridagi jarohatli va trofik-almashinuv buzilishlar.

Ko'rsatilgan sabablar jismoniy va ruhiy sohalarda turli xil patologik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Nutq rivojlanishining kechikishiga, nutqning zaiflashuviga olib keladi va duduqlanishning rivojlanishiga imkon beradi.

Nomuvofiq shartlarga quyidagilar kiradi:

Bolalarning jismoniy zaifligi; Miya faoliyatining yoshga bog'liq xususiyatlari: bosh miya katta yarimshari asosan bolaning besh yoshga yetganida shakllanadi, aynan shu yoshda bosh miya faoliyatidagi funksional assimetriya yuzaga keladi. Ontogenetik jihatdan o'ta tabaqalashgan va kech yetilgan nutq funksiyasi, ayniqsa, nozik va zaif bo'ladi. Shu bilan birga, o'g'il bolalardagi nutq funksiyasining qiz bolalardagiga nisbatan kech rivojlanishi ulardagi nerv sistemasining zaiflashuviga sabab bo'ladi;

Nutqning jadal rivojlanishi (3—4 yoshda): bunda uning kommunikativ, idrok etish va muvofiqlashtiruvchi faoliyatlari kattalar bilan bo'ladigan muloqot ta'siri ostida tez rivojlanadi. Bu davrda ko'pgina bolalarda bo'g'in va so'zlarni takrorlash (integratsiya) kuzatiladi. U fiziologik xarakterga egadir;

Bolaning yashirin, ruhiy siqilishi: atrofdagilar bilan salbiy munosabatlar asosida tez ta'sirlanish; muhim talablar va uni anglash darajasi o'rtasidagi ziddiyat;

Bola va kattalar o'rtasidagi **ijobiy emotsional aloqalarning noto'kisligi.** Hissiyotli (emotsional) zo'riqish paydo bo'ladi, u sirdan ko'pincha duduqlanish bilan nihoyalanaadi;

Harakat, ohang hissi, mimik-artikular faoliyat rivojlanishidagi yetishmovchilik: Aytib o'tilgan u yoki bu qulay shartlar mavjud bo'lgani holda qandaydir miqdorda favqulodda tashqi omil (qo'zg'atuvchi)ning bo'lishi nerv buzilishi va duduqlanishni yuzaga keltirish uchun yetarlidir. Keltirib chiqaruvchi sabablar guruhida anatomik-fiziologik, ruhiy va ijtimoiy sabablarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Anatomik-fiziologik sabablar: ensefalitik oqibatlar bo'lgan jismoniy kasalliklar; jarohatlar — ona qornidagi, tug'ilish paytidagi, ko'pincha asfiksiya bilan, miyaning chayqalib lat yeyishi; miyaning organik buzilishi, bu paytda harakatni muvofiqlashtiruvchi qobiq osti mu'ayyanlari yallig'lanishi mu'ayyan; zaharlanish va mu'ayyanlari muvofiqlashtiruvchi boshqa kasalliklar natijasida nerv sistemasining tamoman izdan chiqishi yoki o'ta charchashi: qizamiq, terlama, gijjalar, ayniqsa, ko'kyo'tal, ichki sekretiya almashinuv kasalliklari, burun, halqum hiqildoq kasalliklari, displaziya, dizartriyaning va nutq to'liq rivojlanmaganligi hollaridagi tovush talaffuzi apparatining mukammal rivojlanmaganligi.

Ruhiy va ijtimoiy sabablari: qisqa muddatli — bir lahza — ruhiy shikast (qo'rquv, vahimaga tushish); uzoq vaqt ta'sir ko'rsatadigan ruhiy shikast, bunda quyidagi holda ko'rinadigan noto'g'ri oila tarbiyasi tushuniladi: tantiqlik, buyruqqa asoslangan tarbiya, bir xil bo'lmagan tarbiya, "namunali" bola tarbiyasi; surunkali ziddiyatli kechinmalar, ruhiy zo'riqish yoki hal etilmagan, umumiy g'ov bo'luvchi ziddiyatli vaziyatlar ko'rinishidagi uzoq muddatli salbiy hissiyotlar; ruhan juda og'ir ezilish; o'tkir samarasiz ta'sirni keltirib chiqaradigan kuchli, bexosdan paydo boluvchi roblar; vahimani va o'ta shodlanish holati; nutqning bolalikda noto'g'ri shakllanishi; nafas olish davomidagi nutq, tez gapirish, tovush

talaffuzining buzilishi, ota-onalarning tez, notekis nutqi, kichik yoshdagi bolalarni haddan ortiq nutq materiallari bilan zo'riqtirish, nutq materiallari va fikr-tafakkurning mu'ayyan tushunchalar, jumalarning murakkab qurilishi) bola yoshidagi nomuvofiq tarzda murakkabligi;



poliglossiya: erta yoshda birdaniga turli xil tillarni bilish odatda qandaydir bir tildagi duduqlanishni keltirib chiqaradi; duduqlanuvchilarga taqlid qilish.

Duduqlanadigan bolalam ing hayajonli nutqida fonetik-fonem atik va leksik-gram matik buzilishlar ko'zga tashlanadi. M aktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanadigan bolalardagi fonetik-fonematik buzilishlar 60,7%, kichik yoshli o'quvchilar orasida 43,1%, o'rta yoshlilarda 14,9% va yuqori sinf o'quvchilarida 13,1% ni tashkil qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi duduqlanuvchi bolalar orasida so'z talaffuzining buzilishidan tashqari, xastalikning 34 foizi nutq rivojlanishidan, so'zning yuzaga kelishm uddatidan, iborali nutqning shakllanishidan chetga og'ish sifatida qayd qilinadi. Talaffuzdagi urg'u, intonatsiya, ritm buziladi. Nutq asoslanmagan pauzalar, qaytariqlar bilan uzilib-uzilib chiqadi, jarangdorlik va talaffuz sur'ati, tovush kuchi, balandligi va shiradorligi duduqlanuvchining nutqiy maqsadi, emotsional holati bilan bog'liq holda o'zgaradi.

Duduqlanish muammolari bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar nuqsonga e'tiborni jalb etish tushunchasi borasida turlicha qarashlarni keltiradilar: diqqat e'tiborning alohida xususiyati (o'jarlik boshlovchilik, xiralik, e'tiborning jamlanganligi), nuqsenni idrok etish, u haqida tasawurga ega bo'lish, unga nisbatan turlicha hissiyotli munosabatda bo'lish (tashvishlanish, xavotirlanish, qo'rquvga tushish).

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bolalarda duduqlanish turli sabablarga ko'ra bo'lishi mumkin, jumladan irsiy omillar, neyrofiziologiya, rivojlanish omillari, psixologik muammolar, atrof-muhit ta'siri, nutq va til buzilishlari, nevrologik holatlar, dori-darmonlar yoki tibbiy sharoitlar. Duduqlanishning turli xil sabablarini tushunish ota-onalarga, o'qituvchilarga va tibbiy xodimlarga ushbu nutq buzilishi bilan kurashayotgan bolalarga tegishli yordam va davolashni ta'minlashga yordam beradi. Bolalar duduqlanishining asosiy omillarini bartaraf etish orqali nutqning ravonligi va muloqot ko'nikmalarini yaxshilaydi, bu esa hayot sifatini yaxshilashga va ijtimoiy o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.“Maxsus pedagogika” M.U.Xamidova Toshkent-2018
- 2.M.Ayupova “Logopediya” 2007 yil
- 3.“ Logopediya”(L.S Volkova tahriri ostida)-M
- 4.“Logopediya”(L.Mominova,M. Ayupova)-T